



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi




# 2022- yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 194,4 mlrd so'mga** yetib, uning nominal hajmi **362,2 mlrd so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,5 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)





# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 194,4</b>	<b>112,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	119,7	119,9
Moliyaviy xizmatlar	469,2	127,1
Transport xizmatlari	471,9	108,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>452,6</i>	<i>107,9</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	37,8	105,0
Savdo xizmatlari	585,9	108,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	65,0	107,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	87,8	99,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,4	111,6
Ijara xizmatlari	40,7	85,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	91,3	111,3
Shaxsiy xizmatlar	75,3	109,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,3	112,5
Boshqa xizmatlar	61,1	122,2



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ijara xizmatlari



Yashash va ovqatlanish xizmatlari

Savdo xizmatlari

26,7 %

Transport xizmatlari

21,5%

Moliyaviy xizmatlar

21,4 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,4 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

4,2 %

Ta'llim sohasidagi xizmatlar

4,0 %

Shaxsiy xizmatlar

3,4 %



## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **26,7 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,9 %** ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiylajma **26,5 %** ni tashkil etgan. 2021-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **1,8 %**.


2022- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**27,1%**), boshqa xizmatlar (**22,2%**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**19,9 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**12,5 %**) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarida (**11,3 %**) qayd etildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ijara xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**123,1 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**173,6 %**) o'sish kuzatilgan.

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **26,7 %** ni tashkil etdi, bu esa **585,9 mlrd so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **486,4 mlrd so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **26,5 %** ga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2021- y.  
yanvar-mart  
Xizmatlar hajmi  
**486,4 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**102,1 %**

Ulushi  
**26,5 %**



2022- y.  
yanvar-mart  
Xizmatlar hajmi  
**585,9 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**108,7 %**

Ulushi  
**26,7 %**

2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **77,8 %** ini tashkil etdi.


## Savdo xizmatlari tarkibi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)

Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosini,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo ulushi **78,3 %** ga yetgan.



2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-mart oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **469,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **368,6** mrd so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyl xizmatlar hajmidagi ulushi **21,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **20,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **100,6** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **127,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **123,2** % ga yetgan.



## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



### 2022- yil yanvar-mart

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,8 %** oralig'ida qayd etildi.

### Dastlabki ma'lumotlar

#### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-mart oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** ga to'g'ri kelgan.



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)

**2021- y.  
yanvar-mart**

**98,5  
mlrd so'm**

**115,7 %**

**5,4 %**

**2022- y.  
yanvar-mart**

**119,7  
mlrd so'm**

**119,9 %**

**5,4 %**





## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-mart**


**Dastlabki ma'lumotlar**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,1 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2021- y. yanvar-mart**

**2022- y. yanvar-mart**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,5 %** ga yetgan.

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**79,7  
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

**87,8  
mlrd so'm**

**2021- y.  
yanvar-  
mart**



**2022- y.  
yanvar-  
mart**

**96,3 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**99,2 %**

2022- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **87,8 mlrd so'mga** yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **78,7 mlrd so'mga** teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **96,3 %** darajasida qayd etilgan.

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd so'm

31,6

37,8

2021- y.  
yanvar-mart

2022- y.  
yanvar-mart



O'sish  
sur'ati, % da

110,5

105,0

2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **6,2 mlrd so'mga** ortdi.

2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

81,0 %

2022- y. yanvar-mart

19,0 %

17,8 %

82,2 %

2021- y. yanvar-mart

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,0 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2021- yilda ularning ulushi **82,2 %** ni tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**  
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y. yanvar-mart**

**2022- y. yanvar-mart**

**38,0  
mlrd so'm**

**Xizmatlar  
hajmi**

**46,4  
mlrd so'm**

**100,7 %**

**O'sish  
sur'ati**

**111,6 %**

**2,1 %**

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**2,1 %**




**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-mart oylarida)



2022- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - 37,3 % (2021- yilda 37,2 %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – 2,5 %.



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-mart**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 194,4</b>	<b>112,5</b>	<b>108,6</b>
<b>Urganch shahar</b>	<b>819,7</b>	<b>112,9</b>	<b>110,9</b>
<b>Xiva shahar</b>	<b>78,2</b>	<b>111,4</b>	<b>116,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Bog'ot</b>	<b>123,2</b>	<b>117,6</b>	<b>105,3</b>
<b>Gurlan</b>	<b>106,9</b>	<b>109,9</b>	<b>105,0</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>115,6</b>	<b>112,0</b>	<b>107,5</b>
<b>Urganch</b>	<b>174,7</b>	<b>109,0</b>	<b>103,5</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>160,8</b>	<b>105,7</b>	<b>105,9</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>54,5</b>	<b>129,1</b>	<b>103,1</b>
<b>Xonqa</b>	<b>144,0</b>	<b>109,6</b>	<b>103,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>117,9</b>	<b>120,7</b>	<b>108,9</b>
<b>Shovot</b>	<b>120,0</b>	<b>112,4</b>	<b>104,4</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>97,1</b>	<b>110,8</b>	<b>106,5</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>81,8</b>	<b>113,7</b>	<b>107,6</b>

*\* Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

1 138,5  
ming so'm

### Hajmning o'sishi

172,2 ming  
so'mga

110,7 %

### O'sish sur'ati



2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 138,5** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan o'sish sur'ati **110,7 %** ni tashkil etdi.

### Taqqoslash

*uchun:*

2021- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **966,3** ming so'mni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi